

BOSHLANG'ICH TA'LIM 4-SINF O'QISH DARSIDA HABIB RAHMATNING "YAXSHI NIYAT" SHE'RINI O'TISHDA SO'Z ETIMOLOGIYASI USTIDA ISHLASH

D.B.Olimova

Qo'qon DPI 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *To'rtinchi sinf o'quvchilarini o'qish darsligidagi Habib Rahmatning "Yaxshi niyat" she'ri bilan tanishtirishda etimologik lug'atdan foydalanish hamda uning afzalliklari haqida mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *"Yaxshi niyat" she'ri, yuksak, shahid, hayron, murg'ak so'zlarining etimologik tasnifi, dars, nutq, mustaqil fikr*

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunchalariga nisbatan ko'proq so'zlarni biladilar. Ya'ni aytgan so'zlarining hammasini tushunavermaydilar. Ular kattalardan eshitgan so'zlarning ma'nosini tushunmagan holda nutqlarida ishlatadilar. O'qiyotganlarida biror so'z ma'nosini tushunmasliklari natijasida umuman gapni tushunmay o'qiydilar. Gap ma'nosini noto'g'ri tushunish esa umuman noto'g'ri tasavvur qilishga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri bolalar lug'atidagi mavjud so'zlar ma'nosini ularning ongiga yetkazish, bolalar nutqi va fikrini mazmunli qilishdan iboratdir. Bunda etimologik lug'atdan foydalanish yaxshi samara beradi.

To'rtinchi sinf o'qish darsligining 144-145-betlarida "Yaxshi niyat" she'ri keltirilgan bo'lib, shu o'rinda so'z etimologiyasi ustida olib borgan faoliyatimiz borasida amaliy ishlarimiz haqida fikr yuritsak.

Mavzu: Habib Rahmatning "Yaxshi niyat" she'rini o'qish.

Darsning maqsadi. Ta'limiy: O'quvchilarga shoirning "Yaxshi niyat" she'rini tanishtirish, she'rni ifodali o'qishga o'rgatish

Tarbiyaviy: O'quvchilarga ezgu niyatlarning abadiyligini o'rgatish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda o'qish malakalarini hosil qilish

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, lirik she'r o'qish darsi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, bahs-munozara elementlari va mustaqil ish metodi, ko'rgazmalilik metodi, interfaol metodlar.

Dars jihozi. Habib Rahmat surati, she'r mazmuni ifodalangan rasmlar, shoir haqidagi ma'lumot.

Darsning borishi.

1. Yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilarni tayyorlash. So'ng o'qituvchi quyidagi she'riy parchani yod aytadi:

Maqtaganda bulbul

Sayrab chamanin,

Men nechun maqtamay

Ona-Vatanim.

2. O'quvchilar she'ring davomini yod o'qiydilar:

Meni shoir etgan

Shu hayot doim,

She'r yo'lin o'rgatgan

Quyoshim, oyim.

3. Yangi mavzu: H.Rahmatning "Yaxshi niyat" she'rini o'qish.

Bir kun o'g'lim so'rab qoldi:

–Bobolarim bo'lganmi?

Bor bo'lsalar qani ular,

Elga xizmat qilganmi?

Ne deyishga qoldim hayron,

Bo'lmasdi shu turishda:

–Katta bobong shahid bo'lgan

Tengsiz jangda, urushda!

“Urush” so'zin eshitdi-yu,

O'g'lim birdan o'zgardi.

Ko'zlarida g'azab chaqnab

Bir nimalar so'zlardi.

–Urush muncha yomon ekan,

O'ylab topgan kim buni?

Yalmog'izdan battar ekan

Odam, olam dushmani.

Mehr bilan tikildim shod

Shu murg'ak polaponga.

Hayajondan o'g'ilchamni

Dast ko'tardim osmonga.

–Sening jajji yuragingda

Olam orzu ovozi.

Yaxshi niyat o'lmaydi hech

Yuksak bo'lur parvozi.

O'g'lim xursand so'zlar shodon:

–Yaxshi niyat o'lmaydi!

Yashasin-ay, yashasin-ay,

Endi urush bo'lmaydi![1]

4. She'rdagi qiyin so'zlarni izohlash:

Yuksak- “baland”, “yuqori”, “oliy”. Bu sifat qadimgi turkiy tilda “to'pla-” ma'nosini anglatuvchi yuq- fe'lining ism eshi bo'lgan yuq otidan “istak” ma'nosini ifodalovchi -sä qo'shimchasini qo'shib yasalgan fe'lga -k qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; o'zbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan. [2]

Shahid- bu arabcha soʻz *ṣahīd* shakliga ega. Oʻzbek tiliga choʻziq *ī* unlisini *i* unlisiga almashtirib qabul qilingan; koʻpmaʼnoli *ṣahida* feʼlining “qiyinalib oʻldi” maʼnosi bilan yasalgan sifat boʻlib, “jangda qurbon boʻlgan” maʼnosini anglatadi.

Hayron- bu arabcha soʻz *ḥayrānu* shakliga ega. Oʻzbek tiliga hoyi hatti undoshini h undoshiga, choʻziq *ā* unlisini *ā* unlisiga almashtirib, soʻz oxiridagi u qismini tashlab qabul qilingan; “ajablendi” maʼnosini anglatuvchi *ḥāra* feʼlidan yasalgan asliy sifat boʻlib, “hayratlangan” maʼnosini anglatadi. [3]

Murgʻak- bu sifat “qush” maʼnosini anglatadigan tojikcha murgʻ otiga kichraytirish maʼnosini ifodalaydigan -ak qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, asli “qushcha”, “joʻja” maʼnosini anglatadi; oʻzbek tilida “oʻsimlikning endi oʻsib chiqqan kuchsiz, nozik niholi” maʼnosini anglatish uchun ishlatiladi. [4]

Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Sheʼrni ichda oʻqish.

2. Sheʼrni zanjirli oʻqitish.

3. Keys stadi metodi orqali sheʼr mavzusi ifodalangan hayotiy vaziyatlardan misollar keltirish

4. Savollar ustida ishlash.

1. Shoir «yaxshi niyat» deganida nimani nazarda tutadi?

2. Jahon xalqlarining ezgu niyati nima deb oʻylaysiz?

3. Ushbu boʻlimda yana qanday sheʼrlar bilan tanishdingiz?

4. Sheʼrni ifodali oʻqish.

5. Sheʼr tuzilish ustida ishlash.

Sheʼr 4 misrali 7 banddan iborat boʻlib, jami 28 misradan iborat. Sheʼrning toq misralari 8 boʻgʻindan, juft misralari esa 7 boʻgʻindan tashkil topgan:

Bir kun oʻgʻ/lim soʻ/rab qol/di:

–Bo/bo/la/rim boʻl/gan/mi?

Bor boʻl/sa/lar qa/ni u/lar,

El/ga xiz/mat qil/gan/mi?

Mehr bilan tikildim shod, shu murgʻak polaponga – oʻxshatish. Ushbu misrada murgʻak polapon deya bola nazarda tutilgan. Bola kichkina boʻlganligi sababli polaponga oʻxshatilgan. Oʻxshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini toʻlaroq, konkretroq, boʻrttiribroq ifodalash»ga aytiladi. [5]

Darsni yakunlash. Oʻquvchilar, bugun biz sizlar bilan yaxshi niyat qilish, oʻtganlarni xotirlash haqida suhbatlashdik. Inson qilayotgan saʼy-harakatining qanday natija berishi, albatta, qalbidagi niyatiga bogʻliq. Yaxshi niyat qilgan boʻlsa, yaxshilikka, yomon niyat qilgan boʻlsa, oʻsha maqsadga yetadi. Niyatni xolis qilish uchun avvalo, kishining qalbi toza, maʼnaviy illatlardan xoli boʻlmogʻi lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oʻquvchilarni sheʼr bilan tanishtirishda soʻz etimologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Oʻzbek tilining boy tarixi, undagi roʻy

berayotgan o'zgarishlar, lug'at tarkibidagi yangi so'zlarning paydo bo'lishi, turli iboralar ma'nosi, so'z etimologiyasini bilish har bir o'quvchi uchun juda qiziqarli. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarning har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o'qitish, nutq madaniyatini o'stirish, yozma va og'zaki nutq mashqlarini uyg'un holatda olib borishdir. O'z navbatida lug'atlar bilan ishlash kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri sanaladi. Shu yo'l orqali o'quvchilar ongiga ko'plab ma'lumotlar singdiriladi, bir so'zning etimologiyasini o'rganish orqali ma'naviy jihatdan ham tarbiyalanib boradi, natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsliklardagi mavzular bilan ishlashda tushunmovchilik holatlari yuzaga kelish ko'rsatkichi juda past bo'ladi yoki bunday holat yuzaga kelmaydi, ularning o'zlashtirayotganlari fikrlash doirasi yanada kengayishiga, bilimlari oshib borishiga, xotirasining mustahkam bo'lishiga, dars yanada tushunarliroq, qiziqarliroq o'tishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga so'zlarning etimologiyasini o'rgatish mobaynida ta'lim bilan birgalikda ularga tarbiyaviy bilim ham berib boriladi, ibratomuz, ma'rifiy saboq vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shojalilov A., Matchonov S., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Yangiyul polygraph service”, 2020. – 160 b.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 2-jild. – Toshkent: Universitet, 2003. – 600 b.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3-jild. – Toshkent: Universitet, 2009. – 283 b.
5. Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983.– 239
6. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THEORETICAL AND HISTORICAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN INNOVATIVE EDUCATIONAL SETTINGS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.05 (2022): 90-93.
7. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN INNOVATIVE EDUCATIONAL CONDITIONS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NECESSITY." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.04 (2022): 196-199.

ONA TILI-BU MILLAT RUHIDIR

Bobonazarova Gulzoda Alisher qizi

Urganch davlat universiteti

Filologiya fakulteti: o'zbek tili yo'nalishi talabasi